Sagindikov Djubatxan Nauirzovich (Qoraqalpoq davlat universiteti "Sotsiologiya va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti)

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIY IMMUNITETINING AKSIOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar ma'naviy immunitetini shakllantirish muammosi falsafiy yondashuvda tahlil qilinadi. Ma'naviy immunitet tushunchasi shaxsning qadriyatlar tizimi, e'tiqod va mas'uliyat mezonlari hamda bilish madaniyati uyg'unlashgan holatda namoyon bo'ladigan ichki barqarorlik sifatida talqin etiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy immunitet, aksiologiya, gnoseologiya, qadriyatlar iyerarxiyasi, bilish madaniyati, yoshlar siyosati, axborot savodxonligi, mafkuraviy barqarorlik.*

Сагиндиков Джубатхан Науирзович (доцент кафедры социологии и культурологии Каракалпакского государственного университета)

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье проблема формирования духовного иммунитета молодёжи в Новом Узбекистане анализируется с философских позиций. Понятие духовного иммунитета интерпретируется как внутренняя устойчивость личности, проявляющаяся в гармоничном единстве системы ценностей, убеждений и критериев ответственности, а также культуры познания.*

Ключевые слова: *духовный иммунитет, аксиология, гносеология, иерархия ценностей, культура познания, государственная молодёжная политика, информационная грамотность, идеологическая устойчивость.*

Sagindikov Djubatxan Nauirzovich (Associate Professor, Department of Sociology and Cultural Studies Karakalpak State University)

AXIOLOGICAL AND GNOSEOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SPIRITUAL IMMUNITY OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. *The article analyzes the problem of forming the spiritual immunity of youth in New Uzbekistan from a philosophical perspective. The concept of spiritual immunity is interpreted as the internal stability of an individual, manifested in the harmonious unity of the system of values, beliefs and criteria of responsibility, as well as the culture of cognition.*

Keywords: *spiritual immunity, axiology, gnoseology, hierarchy of values, culture of cognition, youth policy, information literacy, ideological stability.*

Kirish. Yoshlar ma'naviy immuniteti mavzusi, ko'pincha, shiorlar maydonida "tarbiya", "ma'naviyat", "g'oya" kabi so'zlar atrofida aylanib qoladi. Falsafa esa mavzuga boshqa savol bilan kiradi: insonni ichkaridan mustahkam qiladigan narsa nimadan quriladi, u qanday mexanizm bilan ishlaydi, qanday holatlarda yemiriladi va uni tiklash qaysi asoslar bilan mumkin. Qadriyatlar tanlovi insonning nimani oliy, nimani vosita deb ko'rishini belgilaydi. Bilish madaniyati esa insonning nimaga ishonishini, nimani tekshirishini, nimani shubha ostiga olishini belgilaydi. Bu ikki tayanch bir-biridan ajralganda immunitet "yumshab" qoladi: qadriyat bo'lsa ham, bilim tekshirilmasa, e'tiqod manipulatsiyaga aylanadi; bilim ko'p bo'lsa ham, qadriyat bo'lmasa, ma'no yo'qoladi va befarqlik kuchayadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichi ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan birga, ong va madaniyat maydonida ham yangi talablarni qo'ydi. Taraqqiyot strategiyasida inson qadri, ta'lim sifati, ma'naviy hayot, fuqarolik faolligi, qonun ustuvorligi kabi yo'nalishlar o'zaro bog'langan holda ko'riladi [1]. Bu yondashuv shuni anglatadiki, yoshning ma'naviy barqarorligi faqat darslikdagi "to'g'ri fikrlar" bilan emas, real hayotdagi adolat tajribasi, imkoniyat, ijtimoiy ishonch va shaxsiy mas'uliyat bilan ham mustahkamlanadi. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun esa yoshlarning huquqiy maqomi, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, ta'lim, bandlik, ijtimoiy faollik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib, ma'naviy rivojlanish uchun institutsional zamin yaratadi [2].

Adabiyotlar sharhi. Yangi O'zbekiston sharoitida ma'naviy hayotni boshqarish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini kuchaytirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalasi normativ hujjatlarda alohida o'rin egallaydi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish kabi vazifalar tizimli tarzda belgilangan [3]. Bu hujjatning falsafiy ahamiyati shundaki, unda "immunitet" atamasi bevosita ma'naviyat bilan bog'lanadi, ya'ni, ma'naviyat faqat an'anaviy axloqiy qoidalar majmuyi emas, balki tashqi g'oyaviy bosimlarga qarshi barqarorlik sifatida talqin etiladi. Keyingi qarorda esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, boshqaruv va muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish ko'zda tutiladi [4]. Mazkur yo'nalish

ma'naviy immunitetni "tasodifiy tarbiya natijasi" sifatida emas, institutlar, tadqiqot, monitoring va metodik tizim orqali boshqariladigan ijtimoiy jarayon sifatida ko'rishga undaydi.

Taraqqiyot strategiyasi esa ma'naviy immunitetni kengroq ijtimoiy kontekstga joylaydi. Strategik maqsadlar ichida ta'lim, madaniyat, jamiyat hayotida fuqarolik faolligi, inson qadri kabi tushunchalar markaziy o'rinda turadi [1]. Bunday yondashuv ma'naviy immunitetni ikki qutb oralig'ida tushuntirishga yordam beradi. Bir qutbda shaxsning ichki dunyosi, e'tiqod va vijdon; ikkinchi qutbda esa ta'lim sifati, adolat tajribasi, imkoniyatlar, mehnat va ijtimoiy ishonch. Yoshlarga oid davlat siyosati haqidagi qonun ham yoshlarning huquq va imkoniyatlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va bandlik kabi masalalarni belgilab, ma'naviy immunitetning ijtimoiy tayanchini kuchaytiradi [2]. Mazkur manbalar "ma'naviyat"ni alohida mavzu sifatida emas, taraqqiyotning ichki sharti sifatida ko'rish kerakligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda esa aksiologik va gnoseologik yo'nalishlarning ta'lim-tarbiyada qo'llanishiga doir muhim fikrlar mavjud. Pedagogik aksiologiya bo'yicha o'quv qo'llanmada qadriyatlar yondashuvi ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni va natijasini qayta ko'rib chiqishini, shaxsda qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish tarbiyaning markaziy vazifasi ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Aksiologik tahlil ma'naviy immunitetning "qaysi qadriyatlar himoya qilinadi" degan savoliga javob izlaydi. Qadriyatlar insonning borliqni baholash mezonlari bo'lib, ular shaxsning tanlovi, maqsadi, xulqi va munosabatlarini boshqaradi. Yosh ongida qadriyatlar iyerarxiyasi shakllanmagan bo'lsa, kuchli axborot oqimi uni oson "ko'chirib" ketadi. Iyerarxiya deganda qadriyatlarni "ko'p" qilish emas, ularni tartiblash nazarda tutiladi: oliy qadriyatlar sifatida inson qadr-qimmati, adolat, halollik, mas'uliyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilmga hurmat, bag'rikenglik kabi mezonlar mustahkam tursa, quyi darajadagi manfaatlar ham o'z o'rnini topadi. Pedagogik aksiologiya yondashuvi aynan shu yerda muhim. Ta'lim jarayoni bilim berish bilangina cheklanmay, qadriyatlarni tanlash va ularni xulqqa aylantirish mexanizmini yaratishi kerakligini asoslaydi. Qadriyatlar "nasihat" bilan singmaydi, ular adolat tajribasi, jamoa muhitida hurmat va talabning muvozanati, mehnat natijasining qadrlanishi, muhokama va muloqot madaniyati orqali ichkilashadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida aksiologik masala yana bir qiyinchilik bilan murakkablashadi: raqamli muhit global qadriyatlar bozorini yaratdi. Global bozorning foydali tomoni ham bor: inson huquqlari, ilmiy dunyoqarash, ijod erkinligi, madaniyatlararo muloqot kabi qadriyatlar keng tarqaladi. Lekin zararli tomoni ham bor: agressiv iste'molchilik, shaxsiy manfaatni mutlaq qiymatga aylantirish, yolg'on shon-shuhrat, zo'ravonlikni romantizatsiya qilish, "tez boyish" mentaliteti, axloqiy relativizm ham shiddat bilan tarqaladi. Aksiologik immunitet shundan himoya qiladi. U yoshning ichida "nimani tan olaman, nimani rad etaman" degan aniq ichki mezonni ishlab chiqadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha qarorda mafkuraviy immunitet-ni mustahkamlash vazifasi qo'yilgani bejiz emas, chunki mafkuraviy immunitet qadriyatlarning ichki mus-tahkamligiga tayanadi, u shaxsning e'tiqodi va vijdonini "tashqi bosim"dan himoya qiladi [3]. Biroq bu hi-moya yopiq bo'lishi shart emas, falsafiy yondashuvda immunitet deganda dunyodan qochish emas, dunyo bilan ongli muloqot qilish tushuniladi.

Aksiologik yondashuv yoshlar ma'naviy immunitetida yana bir qatlamni ochadi: ma'no va maqsad muammosi. Ma'naviy immunitet faqat "yomon"dan himoya emas, u "nima uchun yashayman, nima uchun o'qiyman, nima uchun mehnat qilaman" degan maqsadning barqarorligi hamdir. Ma'naviyatshunoslik manbalarida ma'naviyat shaxsning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va ijtimoiy-madaniy mohiyati bilan bog'lanadi [5]. Mazkur talqin shuni anglatadiki, ma'naviy immunitet shaxsning ichki dunyosida ma'no uzluksizligini saqlaydi. Ma'no uzilganda, yosh o'zini faqat tashqi signal va trendlar bilan boshqariladigan mavjudotga aylantiradi. Trendlar tez o'zgaradi, shuning uchun immunitet ham tez charchaydi. Demak, aksiologik asos ma'naviy immunitetni qadriyatlar iyerarxiyasi, ma'no va maqsad barqarorligi, vijdoniy filtr va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi sifatida ko'rsatadi.

Natijalar. Modelning amaliy tomoni ta'lim va tarbiya jarayonida uchta muhitni uyg'unlashtirishni talab qiladi: oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik makoni. Oila qadriyatlar iyerarxiyasining dastlabki qatlami, vijdoniy filtrning boshlang'ich maktabi hisoblanadi. Ziddiyat ko'paygan sayin yosh "qaysi biri haqiqiy" degan savolda charchaydi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga oid hujjatlarda muvofiqlashtirish, tizimlilik va hamkorlik ruhining ta'kidlanishi bevosita falsafiy mantiqqa mos keladi [3], [4]. Tizim bo'lmagan joyda immunitet ham tasodifiy bo'ladi.

Ma'naviy immunitetni shakllantirish masalasida yana bir muhim nuqta bor: "himoya" va "ochiqlik" muvozanati. Yosh ongini butunlay yopib qo'yish mumkin emas, hatto kerak ham emas, chunki modern hayot ochiq muloqot va raqobat maydonidir. Aksiologik immunitet ochiqlikni qadriyatlar mezoni bilan boshqaradi. Gnoseologik immunitet esa ochiqlikni bilish intizomi bilan boshqaradi. Shu muvozanat saqlansa, yosh global axborotdan qochmaydi, uni tahlil qiladi, foydali qismini oladi, zararli qismini rad etadi. Yangi

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida islohotlarning muvaffaqiyati, ko‘p jihatdan, insonning ongli ishtiroki va mas’uliyatiga bog‘liq ekani ko‘rinadi [1].

Xulosa va munozara. Maqola doirasida Yangi O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy immunitetini shakllantirish muammosi falsafiy yondashuvda qayta talqin qilindi. Ma’naviy immunitet shaxsning ichki barqarorligi bo‘lib, u qadriyatlar iyerarxiyasi va bilish intizomi birlashganda kuchayadi. Aksiologik asoslar yosh ongida oliy qadriyatlarni tanlash, ma’no va maqsadni barqarorlashtirish, vijdoniy filtrni mustahkamlash orqali himoya mexanizmini yaratadi [5]. Gnoseologik asoslar esa manba va dalil bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, talqin va faktni farqlash, kognitiv xatolarni tanish, raqamli muhitda axborotni tekshirish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali himoya mexanizmini amaliy holga keltiradi [6]. Davlat strategik va normativ hujjatlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar va mafkuraviy immunitetga doir vazifalar belgilanganligi ushbu falsafiy mantiqni institutsional darajada qo‘llab-quvvatlaydi [1], [2], [3], [4].

Amaliy jihatdan eng muhim xulosa shundan iboratki, ma’naviy immunitetni kuchaytirish uchun tadbirlar ko‘pligi yetarli emas, mazmuniy mezonlar va o‘lchab bo‘ladigan kompetensiyalar zarur. Oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik makoni uyg‘un ishlaganda, yoshlar ongida barqaror ma’no, mas’uliyatli erkinlik va 32ntellectual ehtiyotkorlik shakllanadi. Ana shunda, ma’naviy immunitet “tashqi tahdid”ga javob bo‘lib qolmay, yoshning hayotiy strategiyasiga, mehnat madaniyatiga va fuqarolik pozitsiyasiga aylana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon. PF-60. 28.01.2022. LexUZ. URL: https://lex.uz/docs/-5841063 (murojaat sanasi 16.02.2026).

(2). O‘zbekiston Respublikasi qonuni. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”. O‘RQ-406. 14.09.2016. Lex UZ. URL: https://lex.uz/docs/-3026246 (murojaat sanasi 16.02.2026).

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror. PQ-4307. 03.05.2019. LexUZ. URL: https://lex.uz/docs/-4320700 (murojaat sanasi 16.02.2026).

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. PQ-5040. 26.03.2021. LexUZ. URL: https://lex.uz/docs/-5344692 (murojaat sanasi 16. 02.2026).

(5). “Ma’naviyatshunoslik” darsligi. Toshkent, 2022. PDF. URL:https://api.scienceweb.uz/storage/ publication _files/1944/5092/63b86720ee84a_Ma%27naviyatshunoslik%20darsligi%20%20%D0%BD%D0%B0%D1%88%D1%80%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%B8%20%D1%81%D0%BE%D0%BD%D0%B8.pdf(murojaatsanasi16.02. 2026).

(6). Madayeva Sh.O. va boshq. Falsafa. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2019, 515-bet. URL: https://turan-edu.uz/media/books/2026/01/25/Falsafa.Sh.Madayeva_va boshqalar-2019.pdf (murojaat sanasi 16.02.2026).

Safarov Nurbek Abdivaliyevich (Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD; safarovnurbek78@gmail.com)

JINOYATCHILIKNING JAMIYAT HAYOTIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Jinoyatchilikning jamiyat hayotiga ta’siri juda ko‘p qirrali, asosan, salbiy bo‘lib, jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur iz qoldiradi. Jinoyatchilik nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyatning barqarorligi, iqtisodiyoti, ma’naviyati va xavfsizligiga zarar yetkazadi. Maqolada jinoyatchilikning yuzaga kelishi, uning sabab va oqibatlari hamda ta’sir mexanizmlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat, profilaktika, xavfsizlik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, axloqiy me’yorlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy xavf, ayb, jazo.*

ВЛИЯНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ НА ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА

Аннотация. *Влияние преступности на жизнь общества очень многогранно и в основном негативно, оставляя глубокий след практически во всех сферах жизни общества. Влияние преступности на жизнь общества очень многогранно и в основном негативно, оставляя глубокий след практически во всех сферах жизни общества. Преступность наносит ущерб не только от-дельным людям, но и стабильности, экономике.*

Ключевые слова: *преступность, профилактика, безопасность, преступность, правонарушение, этические критерии, социализация, социальный риск, вина, наказание.*

THE IMPACT OF CRIME ON THE LIFE OF SOCIETY

Annotation. *The impact of crime on the life of society is very multifaceted and largely negative, leaving a deep imprint on almost all spheres of society.nnotation. The impact of crime on the life of society is very multifaceted and largely negative, leaving a deep imprint on almost all spheres of society. Crime harms not only individuals, but the stability, econo.*